

"NUROTA ETNOMADANIY MUHITIDA HUNARMANDCHILIKNING O'ZIGA XOSLIGI" KASHTADO'ZLIK SAN'ATI, DUNYO KASHTASI TIMSOLIDA

Shaxzoda G'opporova

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti,
nomoddiy madaniy merosni ilmiy- tadqiq etish bo'limi
kichik ilmiy xodim

Annotatsiya: Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosning hunarmandchilik йўналишида Нурота этномаданий мухитида хунармандчиликнинг ўзига хослиги, каштадўзлик санъати, дунё каштаси тимсолида фикр ва mulohazalar yuritilgan.

Аннотация: В данной статье изложены мысли и мнения в направлении ремесел нематериального культурного наследия, уникальности ремесел Нуратинской этнокультурной среды, искусства вышивки, мировой вышивки.

Annotation: In this article, there are thoughts and opinions in the direction of handicrafts of intangible cultural heritage in the Nurata ethno-cultural environment in the form of the uniqueness of handicrafts, the art of embroidery and the world embroidery.

Kalit so'zlar: (nomoddiy madaniy meros, san'at, hunarmandchilik, „сюхуа“ (игнали тасвир), этномаданий мухит, an'anaviy hunarmandchilik)

"Ma'lumki har qaysi millatning amaliy san'ati inson ongli hayot kechira boshlagan davrlardan buyon uning atrof muhit bilan uyg'un va hamohang bo'lib yashashi, go'zallikni kashf etishga intilishi, rang-barang tabiat manzaralaridan zavq va hayrati natijasida yuzaga keladi.

Shu ma'noda bu Nodir san'at xalqning aql-zakovati, noyob iste'dodi va azaliy qadriyatlarini bamisoli ko'zgudek o'zida yorqin aks ettiradi desak yanglishmagan bo'lamiz". Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev yuqoridagi so'zlarni bizning nomoddiy madaniy merosimizni o'rganish va uni targ'ib etishga hamda san'atning hunarmandchilik turiga bevosita e'tibor qaratilayotganligi sababli xalq amaliy bezak san'ati durdonalarini o'rganish bizning oldimizda turgan eng ustuvor vazifalar sarasidan ekanligini ta'kidlaganlar. Bugungi kunda nomoddiy madaniy merosimizni targ'ib etish borasida bir necha farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-405-sonli qarorida "Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi" negizida "Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti" tashkil etilganligi nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining "Prezident qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida" 2023-yil 29-dekabrda 286-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan "Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti" strukturasi tasdiqlangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 dekabrda PQ-405-son qarorining 1-ilovasi, Nomoddiy madaniy merosning alohida numunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha bir qancha topshiriqlar xududiy o'rganishlar chora-tadbirlar rejasi asosida belgilab berilgan.

Unga ko'ra nomoddiy madaniy merosni asrash avaylash saqlovchilarini rag'batlantirish va ular bilan birgalikda ustoz shogird an'analarini yo'lga qo'yish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Bunda xududiy madaniy muhitlarga tegishli bo'lgan qadimiy nomoddiy madaniy merosimizni o'rganish va targ'ib etish, o'z holatida kelajak avlodga etkazish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Qadimiy va navqiron qadriyatlarimiz o'chmas an'analarimiz kishilar qalbidan joy olib ulgurgan zamonda yashar ekanmiz biz o'zligimizni madaniy muhitimizni anglamog'imiz darkordir. Milliy merosimiz bizga ota bobolarimizdan qolgan o'lmas oltinga teng bo'lgan yodgorliklarimiz bugungi kunda dunyo

hamjamiyati oldidagi o'rnimizni belgilab bermoqda.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy merosni asrab avaylash uning zilol yanglig'sarchashmasidan qaynab chiqqan tafakkur javohirlari asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelgan kashtachilik san'ati bugungi kunda dunyo yuzini ko'rdi.

"Nurota etnomadaniy merosi va uning zamirida mahalliy hunarmandchilikning o'ziga xos taraqqiyoti" (Nurota etnomadaniy muhitida hunarmandchilikning o'ziga xosligi) orqali biz kashtachilik san'atini bizning ota bobalarimizning qilgan amaliy qo'l mehnatlari va ularning bizgacha etib kelgan noyob madaniy yodgorliklarini butun dunyoga qancha tanitsakda kamdir.

Milliy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga chuqur singdirish, har tomonlama etuk, barkamol, vatanparvar avlodni tarbiyalab voyaga etkazishda madaniy muhitning o'rni beqiyosdir. Yurtimiz istiqloqga erishgandan keyin xalq og'zaki badiiy ijodiyotini hamda amaliy bezak san'ati durdonalarini o'rganish va ommalashtirishning keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 dekabrda PQ-405-son qaroriga 1-ilovasida nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish rejasi kashtachilik Navoiy ixtisoslashtirilgan san'at maktab internati (Nurota tumani) ilovaga asosan bevosita kiritilgandir. Hamda 5-ilovasi, 2024-2025 yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilishda fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejasi va 2024-2025 yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish, mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish rejasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining nomoddiy madaniy meros ob'ektlari bo'yicha "YUNESKO" bilan hamkorlikda olib borayotgan qator ilmiy ishlari, bugungi jahon siyosatida yaraqlab chiqqan yorqin yulduzday "turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi" ning tashkil etilishi, 2009 yil 3 oktyabrda imzolangan "Naxchivan shartnomasi "turkiy davlatlar, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkiya hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekistonning mazkur tashkilotga 2018 yilda kuzatuvchi maqomi bilan qo'shildi. 2019 yil 14 sentyabrda tashkilotning to'laqonli a'zosiga aylanishi nafaqat o'zbek, barcha turkiy xalqlar ilmiy tadqiqodchilariga yangidan-yangi mavzular eshiklari ochildi.

Nomoddiy madaniy merosni o'rganishda o'zbek milliy kashtachiligi amaliy sa'natining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u halqning o'z turmushini go'zal qilish sa'nati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham Shuhrat qozongan. O'zbek xalq chevarlari tomonidan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar. Germaniya Federativ Respublikasi, Bel'giya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Xozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni xayratga solib kelmoqda.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. Buni arxiologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb - hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'orbezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham Shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Frantsiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Bel'giya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muz-eylarida ko'p namunalarini to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

O'zbekistonda Nurota tumanida ham kashtachilikning o'ziga xos turi azal-azaldan tikilib an'ana tusida momomeros bo'lib ustoz shogird an'anasida bizgacha etib keldi. Xozirda nurotaliklar kelinlar uylariga kirishda kirish eshiklariga parda, derazalariga kashtali pardalar, uy turiga mehrobqosh va uyni bezashda kashtalar tikib bezak berishmoqda. Qolaversa kashta bilan choynakni ustiga yopishga o'ramchi, kelinlarga yuboriladigan dast ro'molchalarda ham kelinning uzatilish sepiga kiritilib urf-odat tusida,

qadriyatga aylanib ulgurandir.

Nurota madaniy muhitida faqatgina kashtachilik emas gilamdo'zlik ham rivoj topmoqda. Bu kabi amaliy hunarmandchilik turi bilan yosh ayollar qizlar va keksa onaxonlar ham shug'illanib kelishadi.

Kashtalarni tabiiy toza pilladan ipak toladan olish uchun nurotaliklar pilla qurtining ipagini olib tozalab suvda ivitib uni oftobda quritishadi. Qurigan ipakni alohida qilib titib chiqiladi. Titilgan ipakni esa bitalab qo'lda ajratilgach piyoz pusti va yong'oq bargi va achchiq anor pusti va anor gullaridan to'q qizil rang olishda, hamda anjirni bargidan matoni oqartirishda rang olishda tabiiy rang qilish uchun qaynatib turli xil ranglarni xosil qilishadi.

Gilamdo'zlikda esa, mayda tuyoqli mollardan olingan junlarni tozalab boyitib, ishlov berish natijasida gilam to'qishda foydalanishadi. Nurota etnomadaniy muhitida kashtado'zlik san'ati alohida o'ringa egadir.

Kashtado'zlik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san'atning ta'siri

katta bo'lgan. XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan. XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san'atining ta'siri ko'zga tashlanadi. Xitoyda XIV asrdan "syuxua"(ignali tasvir) nomi bilan

mashhur bo'lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin. Evropada kashtado'zlik uyg'onish davrida yuqori pog'onaga ko'tarildi. Davrning buyuk rassomlari (Perujino, Botticelli) kabilar kashtado'zlar

uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtado'zlikda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ip-AK, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asrda Evropada asl-zodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan kashtado'zlik buyumlari keng tarqalgan.

XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar kashtado'zlikning qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi.

Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan.

1467 yili Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan. "Temurtaxt"- da miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XX asrning 2-yarmida tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand kashtado'zlik mahsulotlari ko'p-roq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa

ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar

kashtado'zlik an'alariga, mahsulotning turlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Zero gullar shakllar va zamonaviy jarayonlarni kelib chiqishi natijasida o'z aksini boshqa bir mangzaraga va shaklga o'zgartiradi. Har bir hududning o'ziga xoslik jihatini zamonlar osha kashtalarda ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Endilikda kashtalarni mashinalar yordamida ham tikish usullari yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa hunarmandchilikka va san'atga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Mashinada kashtachilikning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur etkazdi. Qo'l kashtalari unitila boshlandi, lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi.

Nurota kashta - bezak turlari: qo'lda yoki mashinada belbog', do'ppi, gulko'rpa, zardevor, kirpech, palak, so'zana, ko'ylak, shuningdek kamar, zamonaviy xalatlari, maxsi va belbog'cha tikiladi. Kashta tikuvchi hunarmand - kashtachi yoki kashtado'z deb ataladi. Kashtachilik - bu kashta tikish kasbidir. Amaliy bezak san'atining keng tarqalgan qadimiy turi. Kashta tikish san'atining ko'p asrlik tarixi bor.

Dunyo miqiyosida arxeologlarning 9-12-asrlarga oid topilmalari qadimgi rus davrida ham kashta bo'lganligidan dalolat beradi. Bu topilmalar bezak gullari hamda zar iplardan tikilgan kiyim parchalaridir. Qadim zamonlarda uy-ro'zg'or buyumlarini, atoqli kishilarning kiyimlarini zar tikib bezashgan. Kashta tikish san'ati an'analari muntazam rivojlana bordi. 14-17-asrlarda kiyimlarni, kundalik buyumlarni bezashda kashta yanada keng qo'laniladigan bo'lib qoldi. Zar va kumush iplarni dur va chaqmoq toshlari bilan qo'shib cherkov liboslariga, podsho va boylarning qimmatbaho shoyi va Baxmal kiyimlariga kashta tikar edilar. Rangli ipak va zar iplar bilan to'y sochiqlari, erkaklarning zig'ir toladan tikiladigan yupqa

bayram ko'ylaklarini, ro'mollarini bezashadi. Kashta tikish asosan taniqli oilalarning ayollari va rohibalarning orasida keng tarqalgan. Kashta tikish san'ati asta sekin hamma joylarga tarqaldi. 18-asrdan boshlab kashtachilik aholining hamma tabaqalari hayotiga kirib, dehqon qizlarining asosiy ishlaridan bo'lib qoldi. Uy-ro'zg'or buyumlaridan sochiqlar, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlar, beshbandlar, bosh kiyimlar va boshqa shu kabilar kashta bilan bezatilgan. Odatda bu buyumlar oddiy, arzon materiallardan yuksak badiy mahorat bilan tikilgan. Kashta tikish usullari gullar, ranglarning mujassamlanganligi avloddan-avlodga o'tib takomillashib bordi. Sekin-asta eng yaxshi kashtalar tanlanib qoldi va milliy xususiyatlari bilan xarakterli betakror kashta namunalari yaratildi. Xalq ustalarining yuqori kasbiy mahorat bilan tikkan kashtalari, bezak buyumlarining chiroyli gullari ranglarning bir-biriga mosligi, to'la mutanosibli, bejirim usullarining aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har qanday buyum ma'lum bir azaliy vazifani bajarishiga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligining ko'p namunalari to'plangan. 19-asr kashtalari yaxshi saqlanib, shu kungacha etib keldi. Kashtalar dexqoncha va shaharcha turlarga ajratiladi. Shahar kashtalari doimo G'arb modasi ta'sirida bo'lgani uchun mustahkam an'nalarga bo'linadi. Xalq kashtachiligi rus dehqonlarining qadimiy urf-odatlariga va marosimlariga bog'liq bo'lgan. Kashta - bezak san'ati turi. Turli rangdagi ip igna, ilmoqli bigiz bilan turli matolar - trikotaj, charm, kigiz, kartonga qo'lda yoki mashinada gul - naqsh tasvir tikiladi. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashta, ipak, paxta, jun, zig'ir, sun'iy tolalardan tayyorlangan iplar, choyi, zar, sim, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmalarni tikib, munchoq, marjon, metall pulyacha (zanglamaydigan metallardan o'rtasi teshib ishlangan doira plastinkachalar), Nodir va qimmatbaho toshlar, shishalardan ishlangan munchoqlar. Har bir xalqning kashtado'zligida qadimdan rivojlanib kelayotgan o'z an'analari, badiiy uslublari mavjud. Bezak buyumlari (palak, so'zana, kirpech, zardevor va shu kabilar), kiyimlar, kichik buyumlar (dastro'mol, xamyon kabilar) ning o'zlariga munosib kashta gullari va shu kashtalarning tiqilishi, usul va uslublari mavjud.

Xozirda bu kashtalar oddiy aloqa telefonlarini solish uchun ham kichik hajmdagi osma ayollarni hamyonlari va sumkalariga ham bezak berib tikilishi an'ana tusiga kirdi. O'zbek kashtado'zligi asrlar mobaynida boyigan, rivoj topgan. O'zbek kashtalarida fors-tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, afg'on, hind, Xitoy, rus kashtado'zlarining kashta usul va uslublari uchraydi. O'zbek kashtalarida geometrik shakllar, o'simliksimon naqsh gullari ko'p ko'zga tashlanadi. Qozoq, qirg'iz naqshlarida mollarning shoxini eslatadigan elementlar ko'p. Rus kashtalarida geometrik shakllar, o'simliksimon gullar bilan bir qatorda qush, mevalarning tasvirlari ko'zga tashlanadi. Rus kashtado'zligida O'zbekcha iroqi usuliga yaqin bo'lgan krest hosil qiladigan kashta xili keng tarqalgan. Kashta tikish rang bilan chambarchas bog'liqdir. Iplarni tanlashda ranglarning uyg'unlashuvini, ular bir biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. Agar uch qirrali shisha prizmadan oq nur o'tsa, u 7 xil rangga ajraladi.

Kashtado'zlikda, ko'k, zangori kabi ranglar sovuq ranglarga kiradi. Havorang jumlasiga kiradigan ranglar osmonni, suvni, muzni eslatadi. Issiq ranglarga sariq, qizil kabi ranglar kiradi. Ular quyoshni, o't - olovni eslatadi. Iliq ranglar buyumlarni kattalashtiradi, sovuq ranglar kichiklashtirganday ko'rsatadi. Kashtachilikda tikiladigan buyumlarning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular O'rta Osiyo kashtachiligida juda keng tarqalgan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, bugjoma, parda, belbog', takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha va boshqalar badiiy did bilan matolarga tikilgan.

Nurota kashtachilik san'ati azal-zaldan momolarimiz tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Kashtachilik san'atida ip tola va ipakning mayinligi birinchi o'rinda turadi. Tabiiy toladan olinishi va buni tayyorlash jarayonlari ham o'zgacha usullarda namoyon bo'lgani kabi gullardagi ranglar, naqshlar, gohida so'zanalardagi arnomentlar, shakllarni tarixi ham o'ziga xosdir. Nurota madaniy muhitida gullarning maydaligi va ularning zichligi tikilish uslubi yo'rma bilan ipni sipta qilib yotiq tikish usuli mavjuddir. Xozirgi kecha kundo'zda bu usul eng savdobop turlardan desak mubolag'a bo'lmaydi. Nurota kashtachilari tomonidan shu kunlarda chet elliklar bilan import va eksport qilish ishlari ham yo'lga

qo'yilgandir. Nurota kashtalari bugun dunyoning eng etuk shaharlarida O'zbekiston nomini gullar va bezaklarda aks ettirib yashnab turibdi. Kashtalarning zamonaviy ko'rinishlarini biz modalar namoyishlarida va bayram sayillaridagi tomoshabenlarning zamonaviy liboslariga tikilgan bejirim gullarda yaqqol ko'ra olamiz. Bayramlardan milliy bayram bu Naro'z, va Mustaqillik, ramozon hayiti, xalq sayillaridir. Bu bayramlarda nafaqat o'zbekistonliklar qolaversa xalqaro milliy madaniy markazlar tomonidan tashrif buyurgan vakillarning milliy kashta tikilgan liboslarda uchratamiz.

Har bayram sayillarida O'zbek xalqining milliy liboslari va kashtali bo'lgan liboslarining alohida ko'rgazmalari bo'lib o'tadi. Bu ko'rgazmalarga milliy beqasam, atlas va adras, qizil alaf, va oq ipak matolarga ishlangan kashta bezaklarini va suv chokklarini ko'rishimiz mumkin. Bu hunar turi allaqachon bizning yurtimizda avloddan avlodga o'tib milliy merosimizga aylanib ulgurdi. Biz nomoddiy madaniy merosni o'rganishda va uning saqlovchilarini etkashizda milliy va mahalliy ro'yxatlarni tuzishda xududiy ekspeditsiyalarni ham tashkil etsak o'ylaymizki maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Milliy hunarmandchilikning biri bo'lgan kashtachilikni hozirgi kunda unutilib ketmasligi uchun, kasb xunar kollejlari — tikuvchilik yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarga kashtachilikning tarixi, kashtachilik buyumlarining turlari, tikilish texnologiyalari, foydalaniladigan asbob moslamalari haqida tushunchalar berib borilishi zarurdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-405-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining "Prezident qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida" 2023-yil 29-dekabrda 286-sonli buyrug'i.
3. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий-безак санъати. Ўқув услубий қўлланма. Т. 1991й.
4. Хасанов Э. Г, Ақромхўжаева М, Ақромходжаева Р. «Каштачилик» услубий қўлланма, Тошкент-2004 й.